



MEHNAT HUQUQIDA MEHNAT SHARTNOMASI TUSHUNCHASI

*Z.R.Allamberganova – Berdaq
nomidagi Qoraqolpoq Davlat Universiteti
Yuridika fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Bu maqolada mehnat shartnomasi tushunchasi, mehnat shartnomasini tuzuvchi taraflar, mehnat shartnomasining asosiy xususiyatlari va uning mehnat qilish huquqlarini amalga oshirilishidagi ahamiyati, mehnat shartnomasining turlari, muddati, shakli va mazmuni, tuzilish tartiblari haqida fikrlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: mehnat shartnomasi, ish beruvchi, xodim, mehnat shartnomasining muddati va mazmuni, muayyan muddat, nomuayyan muddat, mehnat shartnomasining turlari, mehnat shartlari

Mehnat munosabatlari haqida gap borar ekan, eng avvalo, mehnat munosabatlarining O'zbekiston Respublikasi amaldagi Konstitusiyasining 42-moddasi bilan mustahkamlab qo'yilganligini aytib o'tish joiz. Unga muvofiq, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hechqanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega, deb belgilangan.

Bozor munosabatlari sharoitida inson huquqlarini ta'minlash, mehnat qilish va o'z mehnati bilan munosib turmush kechirishni kafolatlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash O'zbekiston Respublikasi qonunchilik faoliyatining asosiy jihatlaridan sanaladi. Mehnat huquqi mehnat qonunchiligining asosiy xususiyatlari va ushbu vazifalarni bajarilishi bilan bevosita bog'liqdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohatlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir" deb ta'kidlagan edi.

Mehnat shartnomasi fuqarolarning mehnat qilish huquqlarini amalga oshirishdagi muhim yuridik hujjat bo'lib, u eng avvalo huquqiy muhofaza funksiyasiga egadir. Mehnat qilish va uni amalga oshirishning asosiy shakli sifatida



mehnat shartnomasining o'рни hamda ahamiyatini yanada oshirish, mehnat shartnomasiga oid qonunchilik tizimlarini yanada takomillashtirish, bu qonun hujjatlari to'liq va og'ishmasdan bajarilishiga erishish, mehnat munosabatlari chog'ida yuz beruvchi nizolarni tezkor hal etish yo'li bilan buzilgan huquqlarning samarali tarzda himoya etilishiga erishish qonunchiligimiz oldidagi dolzarb vazifalardandir.

Mehnat shartnomasi - xodim va ish beruvchi o'rtasidagi muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha mehnat majburiyatlarini ichki mehnat tartibiga amal qilgan holda haq evaziga bajarishidan iboratdir.

Mehnat shartnomasi haqida yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi VI bobida aniq ravshan ko'rsatib o'tilgan. Ushbu kodeksning 73-moddasiga muvofiq, mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan ish joyi, xodimning mehnat vazifasi – mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim, ishning boshlanish kuni, mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati, mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari belgilanadi.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnomasi shakli O'zbekiston hukumati tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunaviy shartnomani hisobga olgan holda ishlab chiqariladi.

Mehnat shartnomasi amal qilish muddatiga ko'ra nomuayyan muddatga tuziladigan va muddatli davrlarga bo'linishi mumkin.

Odatda nomuayyan muddatga mehnat shartnomasining tuzilishi shartnomaning amal qilish muddatini cheklamaydi va bu haqida ko'rsatilmaydi. Nomuayyan muddatga mehnat shartnomasi besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga va muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

Muddatli mehnat shartnomasini tuzish xodimning ish beruvchi oldidagi mavqeini pasaytirilishiga sabab bo'lishi, uni ish beruvchi erki-xohishiga bog'liq qilib qo'yishi mumkinligi va muddatli mehnat shartnomasini tuzgan xodim doim xavfni his qilib yurishi tufayli amaldagi mehnat qonunchiligida muddatli mehnat shartnomasi tuzish sohasida ish beruvchi erkini ma'lum darajada cheklaydi va unga faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina muddatli mehnat shartnomasini tuzishga ruxsat etadi.

Belarus Respublikasining Mehnat Kodeksi 1999-yil 26-iyulda qabul qilingan va 2000-yil 1-yanvardan kuchga kirgan bo'lib, kodeksning 17-moddasida mehnat shartnomasi muddati haqida aytib o'tilgan. Unga ko'ra mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga, besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga, muayyan



ishni bajarish vaqtiga, vaqtincha yo'q bo'lgan xodimning o'rnini bosish maqsadida, mavsumiy ishni bajarish vaqtiga tuzilishi mumkin.

Belarus Respublikasi Mehnat Kodeksida bajarilajak ishning xususiyati, uni bajarish shartlarini, shuningdek kodeksda nazarda tutilgan boshqa shartlarni hisobga olgan holda, muayyan muddatga mo'ljallangan mehnat shartnomalarini tuzish mumkin bo'lgan vaqtlarda muddatli mehnat shartnomasi tuzilishiga ruxsat beriladi.

Mehnat shartnomasining muhim shartlari jumlasiga xodimga yuklanayotgan mehnat funksiyalari, ish haqi to'lashga oid shartlar, shartnomaning muddati, xodim mehnat vazifalarini bajaradigan joy, ishni boshlash vaqti haqidagi kelishuvlar kiradi.

Mehnat shartnomasining qo'shimcha shartlari ro'yxati qonunda nazarda tutilmagan bo'lib, bu shartlar mehnat shartnomasi taraflarining o'zaro kelishuvlari bilan belgilanadi hamda ular o'rtasidagi mehnat munosabatlari va u bilan bog'liq boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Mehnat shartnomasining qo'shimcha sharti uning taraflari imzolaganlaridan keyin bajarilishi har ikki taraf uchun ham majburiy bo'lgan qoidaga aylanadi.

Mehnat shartnomasining qo'shimcha shartlaridan biri amalda keng tarqalgan dastlabki sinov qo'llash haqidagi shart sanaladi.

Xodimning topshirilayotgan ishga layoqatliligini tekshirib ko'rish va xodim mehnat shartnomasida shartlashilgan ishni davom ettirishning maqsadga muvofiqligi haqida bir qarorga kelishini aniqlash maqsadida dastlabki sinov qo'llanilishi mumkin.

Dastlabki sinovni o'tash haqida mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi lozim. Bunday shartlashuv bo'lmagan taqdirda xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan bo'ladi. Dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emas.

Rossiya Federatsiyasi mehnat qonunchiligiga ko'ra, sinov muddati uchun ishga joylashish keyingi hamkorlik imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, shoshilinch shartnoma tuzilganda (olti oygacha) eng qisqa muddat beriladi. Bundan tashqari, bu mavsumiy ishchilarga tegishli. Ular uchun 2 haftalik sinov muddati belgilanishi mumkin, ammo bundan ortiq emas. Biroq, odatda ko'proq vaqt talab etiladi. Ko'pgina hollarda, sinov muddati 3 oygacha davom etadi. Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksi tomonlarning kelishuvi bilan yoki undan oldin tugashi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, mehnat shartnomasi tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u shartnomaning asosiy belgilarini o'z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, mehnat shartnomasi birinchidan, xodim va ish beruvchining erki va maqsadini ifoda etuvchi kelishuvlar, ikkinchidan, kelishuvga muvofiq, xodim



qandaydir bir ishni bir marta bajarish majburiyatini emas, balki muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha biror bir ishni, aniqroq aytganda muayyan mehnat vazifasini bajarish majburiyatini oladi, uchinchidan, kelishuvga muvofiq, xodim ma'lum mehnat vazifasini muayyan korxonada, muassasada, tashkilotda bajarish majburiyatini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi 30.04.2023
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yozma holdagi mehnat shartnomasini tuzish yuzasidan tavsiyalari"
4. Belarusiya Respublikasi Mehnat kodeksi 29.06.2020
5. Rossiya Federatsiyasi Mehnat Kodeksi 13.06.2023
6. Inoyatov A. O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashryoti, 2002. -384 b.
7. Gasanov M.Yu., Sokolov E.A. O'zbekiston Respublikasida Mehnat shartnomalari. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1999. 528 b.
8. Трудовое право. В 2-х т. Т.2. Общая часть. учебник для бакалавриата и магистратуры // Отв. ред. Ю.П. Орловский; ред.-сост. Е.С.Герасимова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во:Юрайт, 2017.
9. Смирнов О.В., Снегирева И.О., Гладков Н.Г. Трудовое право. Учебник. 5-е изд.-М.:РГ-Пресс,2018.
10. Usmonova M.A., B.Israylov. Mehnat huquqi. O'quv-uslubiy majmua. – T.: TDYU, 2011. 462 b.
11. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)
12. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)